

Xoliyorov Bunyod Husanovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
Xorijiy tillar kafedrası mudiri,
bunyodkholiyorov1985@gmail.com
Tel: +998945263885

UO‘K: 8.81.81-13.81‘23

**INGLIZ TILINI NOFILOLOGIK MAQSADLARDA O‘QITISHDA
“AUTENTIVLIK” HAMDA “AUTENTIK MATERIAL”
TUSHUNCHALARINING LEKSIK KOMPETENSIYANI
RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI**

Annotatsiya: *Nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tili o‘qitishda real hayot muhitidan olingan materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu dolzarblik texnika profilidagi ta’lim muassasalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur materiallarning ta’lim uchun mo‘ljallanmagan ko‘rinishi autentik deb nomlanadi. Ushbu maqolada autentivlik va autentik materiallarning maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishdagi o‘rni, leksik kompetensiyani rivojlantirishda ulardan foydalanishga doir izlanishlar aks etgan.*

Kalit so‘zlar: *autentik, autentivlik, leksik kompetensiya, nofilologik, ingliz tili, material, til o‘qitish, o‘rganish, maxsus maqsadlar, pedagog, kreativlik, realiya, original, sof autentik material, leksik birlik.*

Холиёров Бунёд Хусанович,
заведующая кафедрой иностранных языков,
Каршинский инженерно-экономический институт.
bunyodkholiyorov1985@gmail.com.
Тел: +998945263885

**РОЛЬ ПОНЯТИЙ «АУТЕНТИЧНОСТЬ» И «АУТЕНТИЧНЫЙ
МАТЕРИАЛ» В РАЗВИТИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ
ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ
ЦЕЛЕЙ**

Аннотация: *Использование материалов из реальной жизни приобретает все большее значение при преподавании английского языка в нефилологических областях. Эта актуальность особенно очевидна в технических учебных заведениях. Необразовательный вид этих материалов называется аутентичным. В данной статье отражены исследования роли аутентичности и аутентичных материалов при обучении английскому языку для специальных целей, а также их использования в развитии лексической компетенции.*

Ключевые слова: *аутентичный, аутентичность, лексическая компетентность, нефилологический, английский язык, материал, обучение*

языку, обучение, специальные цели, педагог, творчество, реальность, оригинальный, чисто аутентичный материал, лексическая единица.

Bunyod Kholiyorov
Head of Department of foreign languages,
Karshi engineering-economics institute

bunyodkholiyorov1985@gmail.com

Phone:+998945263885

THE ROLE OF THE CONCEPTS OF "AUTHENTICITY" AND "AUTHENTIC MATERIAL" IN THE DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH FOR NON-PHILOLOGICAL PURPOSES

Abstract: *The use of materials from real life environment is gaining importance in teaching English in non-philological fields. This relevance is especially evident in technical educational institutions. The non-educational appearance of these materials is called authentic. This article reflects research on the role of authenticity and authentic materials in teaching English for special purposes, and their use in the development of lexical competence.*

Key words: *authentic, authenticity, lexical competence, non-philological, English language, material, language teaching, learning, special purposes, pedagogue, creativity, reality, original, purely authentic material, lexical unit.*

Kirish

Xorijiy tillarni o'qitishning tarmog'i - maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitish(ESP-English for Specific Purposes) ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan barcha mamlakatlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada puxta bilim olgan kadrlar o'z navbatida mutaxassisligidan tashqari sohasiga doir ingliz tilini puxta egallashiga turtki beradi. Sohaga doir ingliz tilini o'qitishda autentik materiallar, umuman autentivlik tushunchalarining ahamiyatini yoritib berish izlanishlarimizning asosini tashkil etadi. Ba'zi olimlar autentik materiallarni faqatgina o'rta va yuqori bosqichli til o'rganuvchilar uchun foydalanish mumkinligini e'tirof etishsa, boshqalar ularni hattoki quyi hamda boshlang'ich darajalarda ham samarali tatbiq etish mumkin deb hisoblaydi. Ya'ni bu har qanday darajadagi o'rganuvchilar, shu jumladan quyi bosqichdan boshlab o'rganuvchilar

uchun ham muvaffaqiyatli moslashtirilishi mumkin bo'lgan til vazifalarini bilan izohlanishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Jahon mamlakatlarida maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitish masalalari bilan L.Antoni(2018), original matnlarni autentik material sifatida ishlatish yuzasidan S.Blagojević(2013), maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitishda materiallar va yo'riqnomalarni shakllantirish bo'yicha H.Basturkmen(2021), talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun podkastlardan autentik material sifatida foydalanish bo'yicha L.L.Alfa(2020), ingliz tilini ikkinchi va xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallardan foydalanish bo'yicha P.S.Rao(2022), xorijiy tillarni o'rganishda autentik materiallar va autenticlik haqida A.Gilmore(2007), maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitishda til ko'nikmalarini va autentik materiallarni integratsiyasi haqida V.Rovena(2020) kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Izlanishlar davomida jahon hamda milliy miqyosda ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitadigan oily ta'lim muassasalaridagi jarayonlarning autentik materiallardan foydalanishga doir tajribalari qiyosiy o'rganildi hamda mualliflik nuqtai nazaridan xulosalandi. Bunda texnikaga ixtisoslashgan ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlari tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etilgan.

Tahlillar va natijalar

Gap maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitish haqida borar ekan, bu o'qituvchidan yanada ko'proq malaka hamda ikki tomonlama izlanishni talab etadi. Ya'ni, nofilologik yo'nalishda ingliz tilidan dars beruvchi o'qituvchi til o'qitishdan tashqari, sohaga yo'naltirilgan terminologiyani ham avval o'zi o'rganib chiqishi lozim hamda soha bo'yicha birlamchi bilimlarni egallashi ham talab etiladi. Autentik materiallardan foydalanish masalasi ham mana shu jarayon bilan birga olib borilishi maqsadga muvofiq.

Autentik materiallardan darslarda foydalanishda ularni turli shakllarda muammoli tarzda taqdim etish ham yaxshi samara berishi mumkin. Innovatsion metod va texnologiyalardan, masalan keys texnologiyasidan foydalanish talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini ko'rsatishlariga asos bo'la oladi. O'ylashimizcha, faqatgina innovatsion metodlardan foydalanilgan holatdagina talabalar kasbiy va shaxsiy ko'nikmalarini o'stira olishadi. O'z navbatida bu o'qituvchiga ham bir qancha foyda va yengilliklar olib keladi. Masalan, nofilologik ingliz tili o'qituvchilarining eng katta muammolari bu ixtisoslikka oid bilimlarni(ya'ni, bir muncha mutaxassis bilimlarning yetishmovchligi) egallashlari talab etiladi.[1]

Autentik materiallar darsda foydalanish uchun emas, balki haqiqiy dunyoga tegishli bo'lgan va uning talablarini qondirish uchun mo'ljallangan materiallarmi yoki yo'qligini batafsil yoritmasdan va muhokama qilmasdan, biz muayyan til tahlillari mavzusi bo'luvchi o'quv namunasini yaratish uchun yozilgan til o'rgatuvchi materialga e'tibor qaratamiz. Boshqa tomondan, Viddouson esa tilni o'rgatishda autentivlikni "...tildan foydalanishning kommunikativ faolligiga erishish, ... ma'noni anglash uchun izohlovchilarni jalb qilish, garchi bu holatlar birinchi ma'noda autentik bo'lmagan matn ma'lumotlari bilan ishlanayotgan bo'lsa ham ularni qat'iy qo'llashni talab qiladi[2]. Mazkur qarashlarni "xorijiy tillarni o'qitishda autentivlik" tushunchasiga bog'lashni niyat qilar ekanmiz, u holda original matnlar va til o'rganishdagi vazifalarni integrativ holda qo'llash ularni tilda muvaffaqiyatli qo'llash garovi ekanligiga shohid bo'lamiz.[3] Lekin shunga qaramay yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarni nofilologik yo'nalishlar uchun ingliz tilini o'qitish nuqtai nazaridan tahlil qilsak, autentivlik hamda autentik materiallar tushunchalarini faqatgina matn, yozma til materiallari, umuman olganda, nazariy ma'lumotlar bilan bog'lash bizning ilmiy tadqiqotimiz maqsadini to'la-to'kis ochib bermaydi. Ba'zi hollarda nazariy materiallarga ham autentik bo'yoqlar berish imkoniyati mavjud bo'ladi. Masalan, original, jurnallardan olingan lavhalar, jihozlarning foydalanish yo'riqnomalari ham autentik materiallar sifatida talqin etilishi mumkin. Ulardan foydalanish holatlari auditoriyaning

joylashuviga, talabalar soniga hamda sharoitga bog'liq bir qancha omillarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan biz nofilologik yo'nalishlar uchun ingliz tili o'qitishda materiallarning autentivlik darajasini ikki turga ajratish mumkin:

- Sof autentik materiallar (Real hayotdan keltirilgan jism shaklidagi(qo'l bilan tegish, harakatlantirish, shaklini o'zgartirish mumkin bo'lgan) ;
- Autentivlik aks etgan materiallar.

Nofilologik ta'lim muassasasida ingliz tilidan dars beruvchi pedagog-o'qituvchidan autentik materiallarining turlaridan maqsadli foydalanishda birmuncha qiyinchiliklar yuzaga kelishini inobatga olgan holda ularni 2 turga bo'lish zaruriyati yuzaga kelgan(1-rasm):

1-rasm. Nofilologik maqsadlar uchun ingliz tili o'qitishdagi autentik materiallar

Yuqoridagi rasmda keltirilgan materiallarning turlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib ularning turdoshlari mashg'ulot mazmuni hamda taqozo etiladigan o'quv muhitiga qarab pedagog tomonidan boshqacha shaklda talqin etilishi mumkin.

Xulosa

Ta'kidlash joizki, ingliz tili bo'yicha dars beruvchi har qanday pedagog aynan bir xil qolipga suyanib qolmay dars jarayonini o'ziga xos kreativlik bilan tashkil etishi muhim omil sanaladi. Bunda **sof autentik materiallarni** realiyaga asoslangan muhitdan bevosita keltirilgan materiallar deb tushunish mumkin. Ular turli shakl, hajmga ega, hattoki organik shakldagi modda turini o'zida aks ettiruvchi materiallar bo'lishi mumkin. Sof autentik materiallar auditoriyaga real hayot ruhiyatini beradi. U materialdan foydalanib leksik boyligini oshirgan talabalar ongida ushbu ma'lumot uzoq muddat saqlanishi kafolatlanadi. Bundan tashqari sof autentik materiallar jarayonga noan'anaviy kayfiyat berib uni unumdorligiga ta'sir etishi muqarrar. Masalan, qishloq xo'jaligi sohasiga ingliz tilidan dars beruvchi ingliz tili o'qituvchisi darsga paxta o'simligining butun bir haqiqiy nusxasi bilan kirib kelishining o'ziyiq talabalarning ongida kuchli evristik jarayonni uyg'otadi. Ma'lumki, mazkur o'simliklarning qismlarini tushuntirib berish hattoki mutaxassislik darslarida ham media-vizual vositalar asosida amalga oshiriladi. Taqdim etilayotgan materialning aynan nusxasi talabalarda jonli muhit bilan hamnafas shaklda o'rganishga turtki bo'ladi. Xo'sh, garchi sof autentik materiallarning afzalligi shuncha yuqori ekanligi ta'kidlanayotgan ekan, u holda autenticlik aks etgan materiallarga nima ehtiyoj bor, degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Buning sababi sof autentik materiallarni hamma vaqt ham auditoriyaga olib kelish imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Bunga bir qancha omillar, ya'ni materiallarning hajmi, shakli, joylashuvi halal berishi mumkin. Ba'zi autentik materiallarni auditoriyaga olib kelishdan ko'ra auditoriya bilan birgalikda materialni oldiga borish osonroq bo'ladi. Aslini olganda auditoriyadan tashqarida jonli muhitda dars olib borish ham jarayonni samarasini ta'minlab beradi deyish mumkin. Lekin bu doimo ham samarali bo'lmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan

autentivlik aks etgan materiallarni mazkur hollarda qo'llash mumkin. Autentivlik aks etgan materiallar-asl autentivlik kayfiyatini beruvchi, aniq modellarning aynan hajman kichraytirilgan, asliday ishlangan nusxalari (replika) bo'lishi mumkin. Albatta, ular sof autentik materiallarni o'rnini to'liq bosa olmaydi. Biroq, ulardan foydalanish an'anaviy materiallardan ko'ra leksik birliklarni ingliz tilida o'rganish, eslash va amaliyotda qo'llashda katta yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Y.Tohirova. Energetika yo'nalishlarining ingliz tili darslarida keys texnologiyasini qo'llash. Namangan davlat universiteti axborotnomasi. 2024. -№ 4 – B.805;
2. Widdowson,H G.. *Learning purpose and language use*. Oxford: Oxford University Press. 1983.137-141p;
3. Savka Blagojević.Original texts as authentic ESP teaching material – the case of philosophy. “ESP today”-Journal of English for specific purposes at tertiary level.Vol. 1(1). Serbia. 2013. 116-117p
4. <https://www.dialogos.rei.ase.ro/36/10.Serban-Oprescu,%20David.pdf>